

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INJINIRINGI
FAKULTETI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
KAFEDRASI**

« Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish»

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi

_____ Boymatov F. S.
Imzo

Rahbar

_____ Butunov Sh.
Imzo

“Himoyaga ruxsat etildi”
“Axborot texnologiyalari”
kafedra mudiri _____
I.f.d. X.S. Muxitdinov
_____» _____ 2015 yil

Himoya uchun DAKga yuborildi:
“Kompyuter injiniringi”
fakultet dekani _____
S.Davronov
“ _____» _____ 2015 yil

Qarshi – 2015 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INJINIRINGI
FAKULTETI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
KAFEDRASI**

" Informatika va axborot texnologiyalari " talim yunalishi

«Tasdiqlayman»

_____ kaf. mudiri

I.f.d. X.S. Muxitdinov

« _____ » _____ 2015yil

***Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha
TOPSHIRIQ***

Talaba:Boymatov Farxod Sarvar o'g'li

1.Malakaviy ish mavzusi: Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish

2.TATU Qarshi filialining _____ buyrug'i bilan _____ da tasdiqlangan.

3.Malakaviy ishni topshirish muddati _____ 2015yil_____

4.Malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Ta'limda loyixalar uslubidan foydalanish texnologiyasi,
loyixalar turlari, dasturlash o'quv loyixalarining mazmuni, tarkibi, ushbu texnologiyaning
ta'lim tizimida, jumladan rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida tutgan o'rni to'g'risidagi
Internet materiallari, dasturlash o'quv loyixalariga oid o'quv materiallari, AKTdan
foydalanishda xavfsizlik texnikasi oid o'quv va elektron adabiyotlar.

5. Xisobiy izox qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati): Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, dasturlash o'quv loyixalari to'g'risida umumiy tushunchalar, tashkil etish texnologiyasi va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni. Dasturlash o'quv loyixalarini tashkil etish, prinsiplari, loyixa tarkibini aniq lashning umumiy yo'nalishlari, undan foydalanishga qo'yilgan asosiy talablar, loyixalar tipologiyasi va turlari, loyixalarini tashqi baxolashni tashkil etish. Soxa KXK doirasida "AKT dan foydalanishda xavfsizlik texnikasi" mavzusida dasturlash o'quv loyixalarini tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqish. Xulosa.

6. Grafik materiallar. Slaydlar: (bajarilishi shart bulgan chizma va grafiklar): Dasturlash loyixalarining mazmuni, turlari, loyixaviy faoliyatni tashkil etish prinsiplari, KXK ta'lim tizimida loyixaviy faoliyat, "AKT dan foydalanishda xavfsizlik texnikasi" mavzusini o'tishda ta'lim texnologiyasi va texnologik xaritasi, mavzuni soxa KXK doirasida dasturlash o'quv loyixasi asosida tashkil etish texnologiyasi.

7. Malakaviy ish bo'yicha maslaxatchi

№	Bo'lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berilgan sana	Maslahatchi imzosi
1	Tehnologik va pedagogik qism	Muxitdinov X. S.		

8. Malakaviy ishni bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

№	Malikaviy ishning bo'limlari	Malakaviy ishning jami, bet	Umumiy hajmga nisbatan	Bajarilganligi to'g'risida belgi	Izox
	Kirish	4	5		

	Loyihaning dolzarbligi, maqsad-vazifalari, ishning o'quv-uslubiy va amaliy ahamiyati	4		<i>bajarildi</i>	
1.	Aksionerlik korxonasi va ularni boshqarishni axborot tizimi	8	10	<i>bajarildi</i>	
1.1.	Aksiyadorlik korxonalarini boshqarishni tashkiliy xuquqiy	4		<i>bajarildi</i>	
1.2.	Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondi, aksiyalari, boshqa qimmatli	2			
2.	Aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha MS Access tizimida ma'lumotlar bazasini yaratish	2			
2.1.	MS Access tizimida aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha ma'lumotlar	15	20		
2.2.	Aksionerlik jamiyatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasining so'rovlar	4		<i>bajarildi</i>	
2.3.	Aksionerlik jamiyatlar bo'yicha shakllar yaratish	2		<i>bajarildi</i>	
2.4.	Aksionerlik jamiyatlarni nomi bo'yicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlash.	2			
3.	Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari va qimmatli qog'ozlar bozorini kakomillashtirish	40	52	<i>bajarildi</i>	
3.1.	Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari bozorini tashkil qilish	2		<i>bajarildi</i>	
3.2.	Aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish	8			
4.	<i>Hayot faoliyati havfsizligi</i>	6	8	4.	
	Xulosa	3-4	5		
	Jami:	71	100		

Malakaviy ish rahbari: _____ **Butunov Sh.**

Topshiriq olingan kun: _____

Talaba: _____ **Boymatov F. S.**

Mundarija

	Kirish.	4
Ochiq aksiyonerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish.		
I Bob. Aksionerlik korxonasi va ularni boshqarishni axborot tizimi.		8
1.1.	Aksiyadorlik korxonalarini boshqarishni tashkiliy xuquqiy asoslari bo'yicha ma'lumotlar bazasi.	8
1.2.	Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondi, aksiyalari, boshqa qimmatli qog'ozlari va sof aktivlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi.	17
II Bob. Aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha MS Access tizimida ma'lumotlar bazasini yaratish		25
2.1.	MS Access tizimida aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini loyihalash.	25
2.2.	Aksionerlik jamiyatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasining so'rovlar yaratish.	30
2.3.	Aksionerlik jamiyatlar bo'yicha shakllar yaratish.	35
2.4.	Aksionerlik jamiyatlarni nomi bo'yicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlash.	42
III Bob. Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari va qimmatli qog'ozlar bozorini kakomillashtirish.		48
3.1.	Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari bozorini tashkil qilish.	48
3.2.	Aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish.	57
	Xulosa.	65
	Adabiyotlar.	67

KIRISH

Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o'rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o'rnatilgan muloqatni tashkil etish tushuniladi. Demak, Kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, Biz u yordamida kompyuter bilan muloqat o'rnatamiz.

Umuman olganda interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog'liq. YA'ni, maqsadga ko'ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma'lumotlar almashinuvi. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Interaktiv xizmatlar tushunchasi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. YA'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlari. Hozirgi vaqtda, Hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo'li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

Mavzuning dolzarbligi Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksionerlik jamiyatlarini va faoliyatini xuquqiy normalarini boshqarish va moliyaviy xolatini taxlil qilish iqtisodiy siyosatda ahamiyati katta.

O'zbekiston mustaqillika erishganidan so'ng pulning nixoyatda qadrsizlanib ketishiga va bank ishi soxasida puxta uylanmagan tadbirlarning amalga oshirilishiga, shuningdek ayrim MDX davlatlarida bulgani mamlakatning inkirozga uchrashiga yul quymaslik maqsadida moliyaviy

soxani qayta islox qilish yulidan ildam bormoqda. Bu urinda aksionerlik jamiyati faoliyati xuquq normalarini odilona ishlab chiqdi.

Shu sababli aksionerlik jamiyatlarni boshqarish va rivojlantirish kursatgichlarini aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar bazasi bitiruv ishlari va ularni amaliyetda qullash xam nazariy, xam amaliy nuktaiy nazaridan dolbzarbdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan u jamiyatimizning ishlab chiqarish, ta'lim tizimlariga va boshqa bir qator sohalariga kirib borishi izchil amalga oshmoqda. Xususan, bugungi kunda korxona, firma va ishlab chiqarish sohalarida, ta'limda va boshqa ko'plab sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish dolzarb masalaga aylangan. Bitiruv malakaviy ishida Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish.

Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish jarayoni hisobini yuritishning dasturiy ta'minotini yaratish mavzusida ish olib borilgan. Bu yaratilgan dasturiy ta'minoti aholi demografik jaryoni ma'lumotlar bazasini boshqarish, monitoring qilish bir qator ishlarni amalga oshirishga imkon berishida zamonaviy dasturiy ilovalardan foydalanilganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning maqsad va vazifalari. MS Accessda Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish jarayonlarining elektron ba'zasini yaratish

(Qashqadaryo viloyati misolida) MS Accessda avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotini yaratish va ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishlariga yordam beradigan ma'lumotlar tayyorlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim.

- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish

elektron ba'zasi avtomatlashtirish masalasi aniqlash;

- Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish jarayonni taxlil qilish;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish jarayon ma'lumotlar bazasining konseptual sxemasini yaratish;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish jarayon ma'lumotlar bazasi jadvallarini yaratish;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayon jadvallari va so'rovlari asosida forma yaratish;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayon boyicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlash;
- Tafsia va mulohazalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obekti. Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish ma'lumotlar bazasi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabr Olim Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish" bandi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturni ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1989, 27.06.2013 (2013 g.) . "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1942, 26.03.2013 . " Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada

kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori PQ-2042, 20.09.2013. qarori va boshqa meyoriy xujjatlar, shuningdek, soha yetakchi olim va mutaxasislari tomonidan yaratilgan nazariyalar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-uslubiy yangiligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarishning elektron ba'zasi avtomatlashtirish masalasi ko'rib chiqilgan;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bazasini yaratish Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayoni taxlil qilingan;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayon ma'lumotlar bazasining konseptual sxemasini yaratilgan;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayon ma'lumotlar bazasi jadvallarini yaratilgan va prognoz qilish algoritmlari ishlab chiqilgan;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayon jadvallari va so'rovlari asosida forma yaratilgan;
- Tafsiya va mulohazalar ishlab chiqish.
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayon MS Access - relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi asosida avtomatlashtirilgan;
- Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish jarayonni boshqarishning avtomatlashtirilgan shaklini tayyorlatgan;

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida erishilgan natijalar ta'lim muassasalarida joriy qilinganda, Ochiq aksiyanerlik jamiyatlarini interaktiv boshqarish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi va doktorantlar, magistrlar uchun ma'lumotlarni avtomatlashtirishga, ular haqida batafsil ma'lumotlar olishni amalga oshirishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida Respublikamizda axborot texnologiyalarini jamiyatimizning barcha sohalariga joriy qilish, ta'lim tizimi, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni haqida to'xtalib o'tilgan.

I Bob. Aksionerlik korxonasi va ularni boshqarishni axborot tizimi

1.1. Aksiyadorlik korxonalarini boshqarishni tashkiliy xuquqiy asoslari bo'yicha ma'lumotlar bazasi.

Aksiyadorlik jamiyati- kursatilgan nominal qiymatga teng aksiyalarning muayyan miqdoriga bulingan nizom fondiga ega bulgan xamda majburiyatlari buyicha fakat uz mol-mulki bilan javobgar buladigan jamiyat. Aksiyadorlik jamiyatining Ochiq yoki Yopiq turda ekanligi Nizomda kayd etiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari yirik ishlab chiqarish uchun, ya'ni yirik sanoat korxonalari uchun tugri keladigan mulkchilik shakli xisoblanadi.

Ochiq turdagi aksionerlik jamiyati deganda korxona uz aksiyalarini chikarib, ularni erkin sotuvga kuyishini nazarda tutiladi. Xissadorlik jamiyati aksiyalari fakat tasischilar urtasida taqsimlanmasdan, balki keng axoli ixtiyoriga, turli investorlar uchun sotuvga quyiladi.

Aksiya- bu aksiyadorlik jamiyati chiqargan qimmatli, daromad keltiruvchi qog'ozdir. U:

- *aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga yuridik yoki jismoniy shaxsning muayyan xissa kushgani tugrisida guvoxlik beruvchi;

- *aksiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiklovchi;

- *aksiya egasiga dividend olish xuquqini beruvchi;

- *aksiya egasining jamiyatni boshqarish ishiga katnasha olishini tasdiklovchi qimmatli qog'ozdir.

Aksiyalar chiqarish tugrisidagi qaror aksiyadorlik jamiyati mutaxassisleri tomonidan yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Qimmatli qog'ozlarni chikaruvchi emitent, shuningdek, u bilan kelishib turib qimmatli qog'ozlarni dastlabki egalariga sotuvchi investitsiya muassasalari xar bir xaridorga mazkur qimmatli qog'ozlarni xarid etish paytiga kadar sotish shartlari va emissiya prospekti bilan tanishib chiqish imkoniyatini taminlashi shart.

Aksiyalar jamiyat faoliyatini boshqarish xuquqini berishi jixatidan oddiy va imtiyozli aksiyalarga bulinadi.

Oddiy aksiya shunday aksiyaki, unga tegadigan dividend foydaga karab xar xil buladi. Uning miqdori kat'iy kafolatlanmaydi, ammo u egasiga aksionerlik jamiyati yiginida ovoz berib, uning ishini xal etishda ishtirok etish xuquqini beradi.

Imtiyozli aksiya shunday aksiyaki, unga tegadigan dividend foydaga karab emas, balki zayomga tulangani kabi, oldindan belgilangan kat'iy foizlarda beriladi. Imtiyozli aksiya egalari aksionerlar majlisida ovoz berish xuquqiga ega bulmaydilar.

Aksiyalar qiymati jixatidan bir nechta turga bulinadi. Bular-nominal qiymat, e'lon qilingan (joriy) qiymat, xisob-kitob (buxgalteriya) qiymati, bozor qiymati.

Aksiyaning nominal qiymati- bu aksiyada yozilgan pul summasidir. Bu summa sarmoya ulushini tavsiflasa-da, aksiyaning jamgarma bozorida xarakat qilishi uchun biron-bir jiddiy axamiyatga ega emas. Shu sababli kupgina mamlakatlarda, ayniksa , xissadorlik mulki yetakchi urin tutgan davlatlarda aksiyalar nominal qiymati kursatilmagan xolda chikariladi. Nominal qiymati kursatilmagan aksiyalarning narxi bozordagi talab va taklifdan kelib chikkan xolda aniqlanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish, ularning faoliyati va ularni tugatish, aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish bilan boglik munosabatlar ushbu Qonun xamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari bilan tartibga solinadi.

Qishloq xo'jaligi, bank, investitsiya va sugurta faoliyati soxalarida, shuningdek davlat korxonalarini xususiylashtirish chogida aksiyadorlik jamiyatlari tuzish va ular xuquqiy xolatining o'ziga xos xususiyatlari qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiklovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyadorlik jamiyati deb xisoblanadi.

Jamiyat qonun xujjatlarida takiklanmagan faoliyatning xar kanday turlarini amalga oshirish chogida xuquqlarga ega bo‘ladi va majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

Jamiyat yuridik shaxs xisoblanadi va o‘zining mustakil balansida xisobga olinadigan aloxida mol-mulkiga ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarni olishi xamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs xuquqlarini ko‘lga kiritadi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

Jamiyat belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi xududi va undan tashkarida bankda xisob varaklar ochishga xaqlidir.

Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘lik yozilgan xamda joylashgan manzili ko‘rsatilgan yumalok muxriga ega bo‘lishi lozim. Muxrda ayni paytning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda xam ko‘rsatilishi mumkin.

Jamiyat o‘z nomi yozilgan shtampi va blankalariga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar nishoniga xamda boshqa o‘z belgi-alomatlariga ega bo‘lishga xaqlidir.

Jamiyat Qonun xujjatlarida man etilmagan va ta’sis xujjatlarida ko‘rsatilmagan istalgan faoliyat turi bilan Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda shug‘ullanishi mumkin. Jamiyat muassislari ta’sis xujjatlarida faoliyatning asosiy turlarinigina sanab o‘tishga xaqlidirlar.

Jamiyat o‘z firma nomiga ega bo‘ladi, bu nom firmaning tashkiliy-xuquqiy shakli va turini (Ochiq yoki Yopiq) aks ettirishi kerak.

Jamiyat davlat tilida va ayni paytning o‘zida jamiyat xoxishiga ko‘ra boshqa tillarda o‘zining to‘lik va kiskartma nomlariga ega bo‘lishga xaqlidir.

Jamiyatning manzili u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyga ko‘ra belgilanadi.

Jamiat u bilan aloka o'rnatib turiladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim va o'z pochta manzili o'zgarganligi to'grisida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni xabardor qilishi shart.

Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'lik ziyonlarni o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida to'laydilar.

Aksiyalar xakining xammasini to'lamagan aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Jamiat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Agar jamiyatning nochorligi (bankrotligi) jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalarni berish xuquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatidagi shaxsning gayriqonuniy xatti-xarakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, mazkur aksiyador zimmasiga jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida tegishli xuquq nazarda tutilgan taqdirdagina, aksiyador majburiy ko'rsatma berish xuquqiga ega bo'ladi.

Jamiat uchun majburiy ko'rsatmalar berish xuquqiga ega bo'lgan aksiyador jamiyatning muayyan xarakterni amalga oshirishi oqibatida nochor (bankrot) bo'lib kolishini oldindan bilib, o'z xuquqidan uning ana shunday xarakterni amalga oshirishini ko'zlab foydalangan xoldagina jamiyatning nochorligi (bankrotligi) aksiyadorning xarakatlari tufayli vujudga keltirilgan deb xisoblanadi. (O'zR 27.12.1996 y. N 357-I-son Qonuni taxriridagi qism)

Davlat va uning organlari jamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydilar, xuddi shuningdek jamiyat xam davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Aksiyadorlik jamiyati Ochiq yoki Yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarning eng kam soni cheklanmaydi, Yopiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari esa kamida uch

shaxsdan iborat kilib belgilanadi. Jamiyatning xar bir muassisi uning aksiyadori bo'lishi lozim.

Katnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati Ochiq aksiyadorlik jamiyati deb xisoblanadi. Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chikarayotgan aksiyalarga Ochiq obuna o'tkazishga va qonun xujjatlarining talablarini xisobga olgan xolda ularni erkin sotishga xaqlidir.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chikarayotgan aksiyalarga Yopiq obuna o'tkazishga xaqli, jamiyat ustavida va qonun xujjatlarida Yopiq obunani o'tkazish imkoniyati cheklab ko'yilgan xollar bundan mustasno.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni chegaralanmaydi.

Aksiyalari fakat o'z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati Yopiq aksiyadorlik jamiyati deb xisoblanadi. Bunday jamiyat o'zi chikarayotgan aksiyalarga Ochiq obuna o'tkazishga yoxud ularni cheklanmagan doiradagi shaxslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga xaqli emas. Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo'lishi mumkin emas. Belgilangan chegaradan ortib ketgan taqdirda u Yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun miqdori aksiyadorlarning chegaralangan limitidan ortib ketgan shaxslar aksiyadorlar reyestrda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran olti oy ichida Ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tugagach, sud tartibida tugatilishi lozim.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni o'zga shaxsga taklif etilayotgan narxda sotib olishda imtiyozli xuquqqa ega bo'ladilar. Agar aksiyadorlar aksiyalarni sotib olishda o'z imtiyozli xuquqlaridan foydalanmasalar, jamiyat aksiyadorlar tomonidan sotiladigan aksiyalarni sotib olish uchun imtiyozli xuquqqa ega bo'lishi uning ustavida ko'zda tutilishi mumkin.

Aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli xuquqdan foydalanish tartibi, muddati jamiyat ustavida belgilab qo'yiladi. Imtiyozli

xuquqdan foydalanish muddati aksiyalar savdoga ko'yilgan paytdan boshlab 30 kundan kam va 60 kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat filiallar tashkil etishi xamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Ular o'zlarini tashkil etgan jamiyat tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadi va shu jamiyat tasdiklagan nizomlar asosida ish ko'radi.

Filial yoki vakolatxonaning raxbari jamiyat tomonidan tayinlanadi va jamiyat bergan ishonchnoma asosida ish ko'radi.

Filial xamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik ularni tuzgan jamiyat zimmasida bo'ladi.

Jamiyat ustavida uning filiallari xamda vakolatxonalari to'grisida ma'lumotlar berilgan bo'lishi kerak. Jamiyatning filiallari xamda vakolatxonalariga doir ma'lumotlar o'zgarishi munosabati bilan uning ustaviga kiritilgan o'zgartishlar to'grisdagi axborot yuridik shaxslarni davlat ro'yxatiga oluvchi organga ma'lumot tarzida taqdim etiladi. Jamiyat ustavidagi mazkur o'zgartishlar ma'lum qilingan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashkarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish, agar O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, filiallar va vakolatxonalar joylashgan yerdagi mamlakat qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Jamiyat yuridik shaxs xuquqini olgan shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Shu'ba xo'jalik jamiyatiga bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalarni berishga xuquqli asosiy jamiyat ana shunday ko'rsatmalarni bajarish uchun shu'ba jamiyat tomonidan tuzilgan bitimlar yuzasidan shu'ba jamiyat bilan solidar javobgar bo'ladi. Asosiy jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyatga bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalarni berish xuquqi shu'ba xo'jalik jamiyat bilan tuzilgan shartnomada yoki shu'ba xo'jalik jamiyatning ustavida ko'zda tutilgan taqdirdagina asosiy jamiyat bunday xuquqqa ega deb xisoblanadi.

Shu'ba xo'jalik jamiyati asosiy jamiyatning aybi bilan nochor (bankrot) bo'lib kolgan xollarda asosiy jamiyat shu'ba xo'jalik jamiyatning karzlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi. Asosiy jamiyat shu'ba xo'jalik jamiyatning muayyan xarakatlarni amalga oshirish oqibatida nochor (bankrot) bo'lib kolishini oldindan bilib, yukorida aytilgan o'z xuquqlari va (yoki) imkoniyatidan shu'ba xo'jalik jamiyatning shunday xarakatlarni amalga oshirishini ko'zlab foydalangan xollardagina shu'ba xo'jalik jamiyatning nochorligi (bankrotligi) asosiy jamiyatning aybi bilan yuz bergan deb xisoblanadi.

Shu'ba xo'jalik jamiyat aksiyadorlari asosiy jamiyatdan uning aybi bilan shu'ba xo'jalik jamiyatga keltirilgan ziyonni to'lashni talab qilishga xaqlidir. Asosiy jamiyat shu'ba xo'jalik jamiyatning muayyan xarakatlarni amalga oshirish oqibatida ziyon ko'rishini oldindan bilib, o'z xuquqlari va (yoki) imkoniyatidan shu'ba xo'jalik jamiyatning shunday xarakatlarni amalga oshirishini ko'zlab foydalangan xoldagina ziyon asosiy jamiyatning aybi bilan keltirilgan deb xisoblanadi.

Agar jamiyatga karashli ovoz beruvchi aksiyalarning yigirma foizidan ziyodrogi boshqa ishtirokchi jamiyatga karashli bo'lsa, bu jamiyat tobe xo'jalik jamiyat deb tan olinadi. Jamiyat yangidan ta'sis etish va (yoki) mavjud yuridik shaxsni qayta tashkil etish (ko'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish, qayta tuzish) yo'li bilan tuzilishi mumkin.

Jamiyatni ta'sis etish yo'li bilan tuzish muassislarning (muassisning) qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Jamiyatni ta'sis etish to'grisidagi qaror ta'sis yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilgan taqdirda jamiyatni ta'sis etish xaqidagi qarorni shu shaxsning yolgiz o'zi qabul qiladi.

Jamiyat muassislari uni tuzish to'grisida o'zaro ta'sis shartnomasini imzolaydilar, shartnomada ularning jamiyatni ta'sis etish borasida birgalikda faoliyat ko'rsatish tartibi, jamiyat ustav fondining miqdori, muassislar o'rtasida joylashtirilishi kerak bo'lgan aksiyalarning xillari va turlari, ular uchun

to'lanadigan xak miqdori va bu xakni to'lash tartibi, muassislarning jamiyatni tuzishga doir xuquq va majburiyatlari belgilab qo'yiladi.

Jamiyatni ta'sis etish to'grisidagi qaror muassislarning ovoz berish natijalarini xamda jamiyatni ta'sis etish, jamiyat ustavini tasdiklash, jamiyatni boshqarish organlarini saylash masalalari yuzasidan ular qabul qilgan qarorlarni aks ettirishi kerak.

Jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiklash to'grisidagi va muassis tomonidan jamiyat aksiyalari xakini to'lash uchun topshirilayotgan qimmatli qog'ozlar, boshqa mulkiy xuquqlar yoki pul bilan baxolanadigan boshqa xuquqlarning pulda baxolanishini tasdiklash to'grisidagi qarorlar muassislardan tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Chet ellik investorlar ishtirokidagi jamiyatni tuzish O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda uni ta'sis etish to'grisidagi qaror davlat mulkini tasarruf etish vakolatiga ega bo'lgan organ tomonidan qabul qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatini tuzish to'grisidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar aksiyadorlik jamiyatining muassislari deb tan olinadi.

Agar qonun xujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat xokimiyati va boshqaruv organlari jamiyat muassislari bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat muassislari jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga kadar uning tuzilishi bilan boglik majburiyatlar yuzasidan solidar javobgar bo'ladilar. Jamiyat muassislarning uni tuzish bilan boglik bo'lgan majburiyatlari yuzasidan fakat ularning xarakatlari keyinchalik aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ma'kullangan taqdirdagina javobgar bo'ladi.

Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ uning muassisi bo'ladi.

Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda aksiyalarni taqsimlash tartibi qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati muassislari o'rtasida aksiyalarni taqsimlash ta'sis xujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi):

aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish to'grisida qaror qabul qiladi va uning ustavini tasdiklaydi;

aksiyalarga ortiqcha obunani qabul qiladi yoki rad etadi. Aksiyalarga ortiqcha obuna qabul qilingan taqdirda ustav fondi tegishli ravishda ko'paytiriladi;

ta'sis etish jarayonida muassislar tomonidan tuzilgan shartnomalarni tasdiklaydi;

chikarilayotgan aksiyalar xillari va turlarini xamda ularning sonini belgilaydi;

jamiyatning kuzatuv kengashini, taftish komissiyasini saylaydi.

Ta'sis yig'ilishida (konferensiyasida) ovoz berish muassislar ko'shgan xissalarga muvofiq o'tkaziladi.

Ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) qarorlarni oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi. Ta'sis shartnomasini o'zgartirish to'grisdagi qarorlar qabul qilinayotgan xollar bundan mustasnodir, bunda barcha muassislarning roziligi talab etiladi.

Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda ta'sis yig'ilishi o'tkazilmaydi.

Ta'sis yig'ilishi (muassis) tasdiklagan ustav jamiyatning ta'sis xujjati xisoblanadi.

Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tasdiklaydigan emissiya ma'lumotnomasi xam ta'sis xujjati xisoblanadi. Jamiyatning ustavida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

Firmaning to'lik va kiskartirilgan nomi xamda joylashgan yeri (pochta manzili); faoliyat soxasi, maqsadi va muddatlari;

ustav fondining miqdori;

ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirish tartibi;
chikarilayotgan aksiyalar turlari, ularning nominal qiymati, xar xil turdagi aksiyalarning nisbati;
daromad (foyda)ni, dividendlarni taqsimlash va zararni koplash tartibi;
zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi;
jamiyat katnashchilarining xuquq va majburiyatlari;
jamiyat boshqaruvining tuzilishi, ijroiya va nazorat organlari a'zolarining soni, ularni saylash tartibi, bu organlarning vakolatlari;
yillik xisobotlarni tuzish, tekshirish va tasdiklash tartibi;
jamiyatni qayta tuzish va tugatish tartibi.

Jamiyat ustavida bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan aksiyalar soni va ular nominal qiymatining summasi cheklab ko'yilishi mumkin.

Jamiyat ustavida qonun xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qoidalar xam bo'lishi mumkin.

Jamiyat aksiyador yoki xar kanday manfaatdor shaxsning talabiga binoan ustavda belgilangan muddatlarda ularga jamiyat ustavi, shu jumladan unga doir o'zgartishlar va qo'shimchalar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi shart. Jamiyat aksiyadorning talabiga binoan jamiyatning amaldagi ustavidan nusxa olib berishi shart. Jamiyat ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyat ustavini yangi taxrirda tasdiklash aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtinchi uch qismdan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga, ushbu Qonun 21-moddasining ikkinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan xollarda esa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga yoki jamiyat kuzatuv kengashining bir ovozdan qabul qilingan qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Jamiyat qonun xujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Jamiyat ro'yxatdan o'tish uchun ro'yxatga oluvchi organga ustavni va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlarni taqdim etadi. Davlat korxonasini qayta tashkil etish yo'li bilan tuzilgan aksiyadorlik jamiyati ustavini taqdim etadi.

Jamiyat tuzishning qonunda belgilangan tartibini buzish yoki uning ta'sis xujjatlari qonunga muvofiq kelmasligi davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga olib keladi. Jamiyatni tuzish maqsadga muvofiq emas, degan vaj bilan uni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l ko'yilmaydi. Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish muddatlarining buzilishi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

1.2. Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondi, aksiyalari, boshqa qimmatli qog'ozlari va sof aktivlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi

Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim.

Jamiyatning ustav fondi uning mol-mulkining o'z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan darajadagi eng kam miqdorini belgilaydi. Jamiyat davlat mulki negizida tuzilganda korxonaning (mol-mulkning) qonun xujjatlarida belgilangan tartibda aniqlangan bozor baxosi jamiyat ustav fondining summasini tashkil etadi. (O'zR 29.08.1998 y. N 681-I-son Qonuniga muvofiq kiritilgan qism)

Jamiyat oddiy aksiyalarni, shuningdek bir yoki bir necha turdagi imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga xaqlidir. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining yigirma foizidan oshmasligi lozim.

Jamiyat ta'sis etilayotganda uning barcha aksiyalari muassislar o'rtasida joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati ustav fondining eng kam miqdori jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha ellik ming AQSH dollariga teng bo'lgan summadan

kam bo‘lmasligi, Yopiq aksiyadorlik jamiyati ustav fondining eng kam miqdori esa, jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanada qonun xujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish xakining ikki yuz baravari miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak. (O‘zR 30.08.2012 y. 535-II-son Qonuni taxririidagi qism), (Oldingi taxririiga qarang)

Jamiyat ustav fondini ta’sis xujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirishning eng ko‘p muddati, agar qonun xujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran bir yildan oshmasligi lozim. (O‘zR 20.08.1999 y. N 832-I-son Qonuniga muvofiq kiritilgan qism)

Jamiyatning ustav fondi aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

Jamiyatning ustav fondini aksiyalar nominal qiymatini oshirish yo‘li bilan ko‘paytirish va jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish to‘grisidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan yoki, agar jamiyat ustavida yoxud aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq jamiyatning kuzatuv kengashiga shunday qarorni qabul qilish xuquqi berilgan bo‘lsa, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Qo‘shimcha aksiyalar jamiyat tomonidan jamiyat ustavida belgilangan e’lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan jamiyat ustav fondini ko‘paytirish to‘grisidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan yoki, bunday qaror qabul qilish xuquqi jamiyatning ustaviga muvofiq yoki aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan jamiyatning kuzatuv kengashiga berilgan bo‘lsa, kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. (O‘zR 30.08.2012 y. 535-II-son Qonuni taxririidagi qism)

Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan jamiyat ustav fondini ko‘paytirish to‘grisidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy (odatdagi) aksiyalarning va e’lon qilingan miqdorlari (ulushlari) doirasida xar bir turdagi imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddati va

shartlari, shu jumladan mazkur qonunga muvofiq joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli xuquqlarga ega bo'lgan aksiyadorlar uchun jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish baxosi belgilangan bo'lishi lozim.

Jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida kayd etiladi. Bunda e'lon qilingan muayyan toifa va turdagi aksiyalarning miqdori joylashtirilgan ana shu toifa va turlardagi aksiyalarning soniga kiskartirilishi kerak.

Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini kiskartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini jamiyatning o'zi keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan sotib olishi yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Jamiyatning ustav fondini aksiyalarning bir qismini sotib olish va muomaladan chiqarish orkali kamaytirishga, agar bunday imkoniyat jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

Agar ustav fondini kamaytirish natijasida uning miqdori jamiyatning ustaviga kiritilgan tegishli o'zgartishlarni ro'yxatdan o'tkazish kuni belgilanadigan jamiyat ustav fondining eng kam miqdoridan qonun xujjatlarida belgilanganidan kamayib ketadigan bo'lsa, jamiyat ustav fondini kamaytirishga xaqli emas.

Ustav fondini kamaytirish va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish xaqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qabul qilinadi.

Ustav fondini kamaytirish to'grisida qaror qabul kilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi fondni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

Ustav fondini kamaytirish vaqtida jamiyat tugatilganida nazarda tutiladigan aksiyadorlarning manfaatlarini ximoya qilish shartlariga rioya etilishi zarur.

Ustav fondini kamaytirish to'grisida qaror qabul qilinganidan boshlab jamiyat kechi bilan 30 kun ichida bu qaror xususida o'z kreditorlarini yozma ravishda xabardor qiladi. Kreditorlar jamiyatning ustav fondini kamaytirish to'grisida o'zlariga xabarnoma yuborilgan sanadan e'tiboran kechi bilan 30 kun ichida jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin ijro etishni va ustav fondi kamaytirilishi bilan bog'lik zararni to'lashni talab qilishga xaqli.

Oddiy (odatdagi) aksiyalar ovoz beruvchi bo'lib, ularning egalariga dividendlar olish, jamiyatning umumiy yig'ilishlarida va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish xuquqini beradi.

Aksiya egalariga dividendlarni, shuningdek aksiyadorlik jamiyati tugatilganda aksiyalarga ko'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish xuquqini beradigan aksiyalar imtiyozli aksiyalar xisoblanadi. Imtiyozli aksiyalar ularning egalariga, korxona foyda ko'rish-ko'rmasligidan kat'i nazar, muayyan dividendlar olish xuquqini beradi.

Yopiq aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari fakat egasi yoziladigan aksiyalar bo'lishi mumkin, ularni boshqa shaxsga o'tkazish tartibi ustavda belgilab qo'yiladi.

Yopiq aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlarga aksiyalar o'rniga ularning nominal qiymatiga teng summada sertifikatlar berishi mumkin.

Chikariladigan aksiyalarning xillari, ularni tarkatish va joylashtirish, ular bo'yicha dividendlar to'lash tartibi aksiyadorlik jamiyatining ustavida qonun xujjatlariga muvofiq belgilab qo'yiladi.

Aksiyalarning nominal qiymati yuz so'mdan kam bo'lishi mumkin emas. Aksiya bo'linmasdir.

Jamiyatning ustavida aksiyadorlar sotib olgan aksiyalarning (joylashtirilgan aksiyalarning) soni va nominal qiymati belgilab ko'yilishi lozim.

Jamiyat ustavida jamiyat joylashtirilgan aksiyalarga (e'lon qilingan aksiyalar) qo'shimcha ravishda joylashtirishga xaqli bo'lgan aksiyalarning miqdori va nominal qiymati belgilab ko'yilishi mumkin.

Jamiyatning ustavida e'lon qilingan aksiyalarni jamiyat tomonidan joylashtirish tartibi va shartlari, shuningdek jamiyat joylashtirayotgan aksiyalarning xar bir xili beradigan xuquqlar belgilab ko'yilishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan qoidalar ustavda bo'lmasa, jamiyat ana shunday xildagi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirishga xaqli emas.

Jamiyat ustaviga jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari xaqida ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar bilan bog'liq o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'grisidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qabul qilinadi.

Agar jamiyat tomonidan aksiyalarga erkin ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar joylashtirilsa, bu xildagi e'lon qilingan aksiyalarning soni ushbu qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lish muddati davomida erkin ayirboshlash uchun zarur miqdordan kam bo'lmasligi lozim.

Jamiyat o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar erkin ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan xuquqlarni cheklash xaqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga xaqli emas.

Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni jamiyat o'z ustaviga muvofiq joylashtirishga xaqli.

Aksiyador ta'sis yig'ilishida (koferensiyasida) belgilangan muddatda, ammo jamiyat ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin ko'pi bilan bir yil ichida aksiyalarni to'lik sotib olishi lozim. Aksiyalarni sotib olish muddati o'tganidan keyin aksiyadorlik jamiyati bu aksiyalarni o'z xoxishiga ko'ra realizatsiya qilishga xaqlidir.

Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ularni joylashtirish to'grisidagi qarorga muvofiq belgilangan muddat ichida, biroq ular sotib olingan (joylashtirilgan) paytdan e'tiboran ko'pi bilan bir yil ichida xak to'lanishi lozim.

Jamiyat ustavida aksiyalar xakini to'lash majburiyatini bajarmaganlik uchun neustoyka (jarima, penya) undirish nazarda tutilishi mumkin.

Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga xak to'lash qonun xujjatlarida belgilangan tartibda pul va to'lovning boshqa vositalari,

mol-mulk, shuningdek pulda baxolanadigan xuquqlar (shu jumladan ashyoviy xuquqlar) vositasida amalga oshiriladi . Jamiyatni ta'sis etish chogida uning aksiyalariga xak to'lash shakli jamiyatni tashkil etish to'grisidagi shartnomada (qayta tashkil etish to'grisidagi qarorda) yoki jamiyat ustavida, qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga xak to'lash esa, ularni joylashtirish to'grisidagi qarorda belgilab qo'yiladi. (O'zR 29.08.1998 y. N 681-I-son Qonuni taxriridagi qism)

Davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilganida aksiyalar xakini to'lash tartibini davlat mulkini tasarruf etishga vakolat berilgan organ belgilaydi.

Jamiyatni ta'sis etish chogida aksiyaga to'lanadigan xak sifatida topshirilayotgan mol-mulkning puldagi baxosi muassislar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq chikariladi.

Agar jamiyatning shu yo'sinda sotib olinayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati qonun xujjatlarida belgilangan eng kam miqdordagi ish xakining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etsa, jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining xaki sifatida topshirilayotgan mol-mulkning puldagi baxosini mustakil narxlovchi chiqarishi kerak. Jamiyat ustavida uning aksiyalari va boshqa egasi yozilgan qimmatli qog'ozlari xaki sifatida topshiriladigan mol-mulk turlari cheklab ko'yilishi mumkin.

Aksiyaning xaki to'lik to'langunga va uning yangi egasi aksiyadorlar reyestrda ro'yxatga olingunga kadar aksiya ovoz xuquqini bermaydi, reyestrda ro'yxatga olish, jamiyatni tuzish vaqtida muassislar sotib olgan aksiyalar bundan mustasno. Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz xuquqini bermaydi, ovozlarni xisoblab chiqish vaqtida inobatga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar yozilmaydi. Bunday aksiyalar jamiyat tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran ko'pi bilan bir yil ichida realizatsiya qilinishi lozim, aks xolda, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rsatib o'tilgan aksiyalarni

muomaladan chiqarish orkali jamiyatning ustav fondini kamaytirish to'grisida qaror qabul qilishi lozim.

Jamiyat ustavida nazarda tutilgan, ammo ustav fondining o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda jamiyat zaxira fondi tuziladi. Jamiyatning zaxira fondi jamiyatning ustav fondida belgilangan miqdorga yetguniga kadar xar yili sof foydadan majburiy ajratmalar o'tkazish orkali tashkil etiladi. Xar yilgi ajratmalarning miqdori jamiyat ustavida nazarda tutiladi, ammo bu miqdor jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga kadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Jamiyatning zaxira fondi ko'rilgan zararni koplash, jamiyat obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va ushbu Qonunga muvofiq aksiyalarni sotib olishni talab qilish xuquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish uchun mo'ljallanadi.

Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

Jamiyat sof aktivlarining qiymati bugalteriya xisob-kitob ma'lumotlari bo'yicha belgilangan tartibda baxolanadi.

Agar ikkinchi moliya yili va undan keyingi xar bir moliya yili tugaganidan keyin jamiyat aksiyadorlari tasdigiga taqdim etilgan yillik buxgalteriya balansiga yoki auditorlik tekshiruvi nati-jalariga ko'ra jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondidan oz bo'lib chiksa, jamiyat o'z ustav fondini sof aktivlari qiymatidan oshib ketmaydigan miqdorgacha kamaytirishini e'lon qilishi shart.

Agar ikkinchi moliya yili va undan keyingi xar bir moliya yili tugaganidan keyin jamiyat aksiyadorlari tasdigiga taqdim etilgan yillik buxgalteriya balansiga yoki auditorlik tekshiruvi natijalariga muvofiq jamiyat sof aktivlarining qiymati ushbu Qonunning 20-moddasida ko'rsatilgan ustav fondining eng kam miqdoridan oz bo'lib chiksa, jamiyat o'zini tugatish xaqida qaror qabul qilishi shart.

Jamiyatning ustav fondini kamaytirish yoki jamiyatni tugatish to'grisida qaror qabul qilinmasa, uning aksiyadorlari, kreditorlari, shuningdek davlat tomonidan vakolat berilgan organlar jamiyatni sud tartibida tugatishni talab qilishga xaqli.

Jamiyat aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ularning bozor qiymati bo'yicha joylashtiradi, quyidagi xollar bundan mustasno:

odatdagi aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar odatdagi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarga joylashtirilganda, agar ular bunday qimmatli qog'ozlarni bozor qiymatining to'kson foizidan kam bo'lmagan narxlarda sotib olishdan iborat imtiyozli xuquqlarini ro'yobga chikarsalar;

aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar vositachi ishtirokida joylashtirilib, ularning baxosi bozor baxosidan ko'pi bilan bunday qimmatli qog'ozlarni joylashtirish baxosiga nisbatan foizlarda belgilangan vositachilik xaki miqdorida arzon bo'lishi.

Ushbu moddaning qoidalari muomaladan chiqarish shartlari nominal qiymatini to'lashni yoki aksiyaga ayirboshlashni nazarda tutuvchi obligatsiyalarni jamiyat tomonidan joylashtirishga nisbatan tatbik etilmaydi.

Mol-mulkning bozor qiymati, shu jumladan jamiyatga karashli aksiyalar yoki boshqa qimmatli qog'ozlarning qiymati shunday baxodirki, mol-mulkning qiymati to'grisida to'lik ma'lumotga ega bo'lgan va uni sotishga majbur bo'lmagan sotuvchi uni shu baxoda sotishga rozi bo'lishi mumkin, mol-mulkning qiymati to'grisida to'lik axborotga ega bo'lgan va uni sotib olishga majbur bo'lmagan oluvchi esa uni shu baxoda sotib olishga rozi bo'lishi mumkin.

Davlatning o'zi jamiyat aksiyalarining egasi bo'lgan taqdirda, davlat moliya organini jalb etish majburiydir.

Qiymatini aniqlash talab qilinayotgan mol-mulk aksiya yoki boshqa qimmatli qog'ozlardan iborat bo'lib, ularning sotib olish narxi yoki talab narxi xamda taklif narxi matbuotda muntazam e'lon kilib turilgan bo'lsa, mazkur

mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun ana shu sotib olish narxi yoki talab narxi va taklif narxi e'tiborga olinishi lozim.

Aksiyadorlar reyestri ro'yxatga olingan aksiya egalarining ularga tegishli egasi yozilgan qimmatli qog'ozlar soni, nominal qiymati va toifasi ko'rsatilgan, xar kanda belgilangan sanadagi xolatga ko'ra tuzilgan xamda bu aksiya egalari, ularga tegishli qimmatli qog'ozlarning soni va toifalari aynan to'g'riligini aniqlash imkonini beradigan ro'yxatidir. Emitentlar aksiyadorlar reyestrini davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va muvofiqlashtirish yuzasidan vakolat berilgan organ belgilagan shaklda yuritishi shart. Aksiyalarni joylashtirgan jamiyat yoki ixtisoslashgan ro'yxatchi jamiyat aksiyadorlari reyestrining saklovchisi bo'lishi mumkin. Oddiy (odatdagi) aksiya egalari bo'lmish aksiyadorlari 500 va undan ortiq bo'lgan jamiyat reyestr yuritish va saklashni ixtisoslashgan reyestr saklovchiga (ro'yxatchiga) shartnoma asosida topshirishi shart.


Ixtisoslashgan ro'yxatchiga reyestr yuritishni topshirgan jamiyat reyestrni yuritish va uni saklash uchun javobgarlikdan ozod etilmaydi.

II Bob. Aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha MS Access tizimida ma'lumotlar bazasini yaratish

2.1 MS Access tizimida aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini loyihalash


Aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishda keng qo'llaniladigan vositalaridan biri bo'lgan **Microsoft Access** dasturidan foydalanamiz .

Ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishga o'tishdan oldin Microsoft Access dasturi ishga tushirilib, qattiq diskda ma'lumotlar bazasi fayllarini saqlash uchun katalog yaratiladi va unga Aksioner deb nom beriladi.



Masalan, **Iste'mol tovar** nomi beriladi. Instrumentlar panelida sozdat bazu dannix tugmasini bosing yoki **Fayl** menyusida **Sozdat...** buyrugini tanlang.

<Sozdaniye bazi dannix> dialog oynasi ochiladi, unga ism kiritish kerak (masalan, Adress) va ma'lumotlar bazasini saklash uchun katalogni (Baza) tanlash kerak. Ma'lumotlar bazasi bushliksiz sakkiztagacha belgiga ega bulishi mumkin.



Natijada ma'lumotlar bazasi oynasiga ega bo'lamiz:

Aksionerlik jamiyati ma'lumotlar bazasi oynasi ma'lumotlar bazasi ochilganda chiqariladi. Undan jadvallar, shakllar va ma'lumotlar bazasining boshqa obektlar ochiladi.

Ma'lumotlar bazasining oynasi quyidagi elementlarga ega:

Sarlavxa satr. Ochilgan MB ismini chiqaradi.

Tugmalar. «Sozdat», «Otkrit», «Konstruktor» va x.k.z. Tugmalar ma'lum oynada va rejimda obektni ochadi.

Obektlar oynalari. (obektlarni tanlash yarliklari). «Tablitsa», «Shakl» va x.k.z. Obektlar tugmalari ochilish yoki uzgarishi mumkin bulgan obektlar ruyxatini chiqaradi.


Obektlar ruyxati. Foydalanuvchi tanlaydigan obektlar ruyxatini chiqaradi. Bizning variantimizda ruyxat xali bo'sh. Ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish ishini bevosita boshlashdan oldin MB ba'zi bir asosiy obektlarning tavsiflariga tuxtaymiz.

Tablitsa – bu ma'lumotlarni yozuv (satr) lar va maydon (ustun)lar kurinishida saklovchi obekt. Odatda xar bir jadval bitta aniq masala buyicha ma'lumotlarni saklash uchun ishlatiladi.

Zapros – kerakli ma'lumotlarni bitta yoki bir nechta jadvaldan olish imkonini beradi.

Shakl – asosan ma'lumotlarni kiritish uchun ishlatiladigan Microsoft Access obekti. Shaklda jadval maydonlaridagi ma'lumotlarni kiritish, tasvirlash va uzgartirishda ishlatiladigan boshqarish elementlarini joylashtirish mumkin.

Otchetlangan jadval. – ma'lumotlarni chop etish uchun muljallangan Microsoft Access Ma'lumotlar bazasi obekt. Jadvalni yaratishdan boshlash kerak.



Jadvalda ma'lum tur, masalan mijozlar yoki tovarlar ruyxatining, ma'lumotlarini saklovchi yozuv saklanadi. Jadvalning asosiy qismi maydon buladi.

Maydon – bu ma'lum bir turdagi, masalan, xodimlar familiyasi, ma'lumotlarga ega bulgan jadval elementi. Jadval rejimida maydonni ifodalash uchun ustun yoki yacheyka ishlatiladi, bu xolda maydon ismi jadval ustuni sarlavxasi buladi.

Yozuv – ma'lum obekt xaqidagi ma'lumotlarning tula tuplami. Jadval rejimida yozuv satr kurinishida tasvirlanadi.

Rejim tablitsi - ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri jadvalga kiritish yo'li. Bu usul bilan Sozdaniye tablitsi putyom vvoda dannix usuli bir xildir.

Konstruktor - bu usul yordamida jadvalning har bir maydoni alohida loyihalashtiriladi, ya'ni maydon nomi, maydondagi ma'lumotning turi va maydonga berilgan izoh aniqlanadi. Bu usul jadval qurishning eng qulay usuli bo'lib, asosan undan foydalaniladi. Bu usul bilan Sozdaniye tablitsi v rejime konstruktora usullari bir xildir.

Master tablitsa. - bu usul tanlanganda Access bizga bir qator oldindan tuzilgan jadvallarning ro'yxatini va ularga mos maydonlarning ro'yxatini taklif etadi. Biz hosil qilayotgan ma'lumotlar bazasiga qarab bu ro'yxatdan o'zimizga keragini tanlab olishimiz mumkin. Bu usul bilan Sozdaniye tablitsi s pomoshyu mastera usullari bir xildir.

Import tablits - bu usulda biz boshqa ma'lumotlar bazasidan (boshqa fayldan) tayyor jadvalni ko'chirib olishingiz (import qilishingiz) mumkin.

Svyaz s tablitsami - bu usul tanlanganda boshqa ma'lumotlar bazasidan (boshqa fayldan) biror jadvalni (jadvallarni) joriy fayl bilan bog'lashimiz (import qilishimiz) mumkin.

Biz "Istemol tovarlar reklamasi va bazasi" loyihasining ma'lumotlar bazasini yaratish" mavzusi asosida jadval yaratishning eng oson va qulay usuli konstruktor rejimidan foydalanamiz. Bu rejim jadvalni o'zimiz hoglagandek loyihalashga va yaratishga imkon beradi.

Muloqot oynasi ikki qismdan iborat bo'lib, yuqori qismi jadval maydonlarini aniqlash uchun, pastki qismi esa har bir maydonning xossasini (Svoystvo polya) aniqlash uchun mo'ljallangan. Pastki qism jadval maydoniga nom berilmagan holatda passiv xolatda bo'ladi, nom berilganda faollashadi.

Jadvallarni yaratib olganimizdan so'ng unga ma'lumotlarni kiritish lozim bo'ladi. Jadvallarga ma'lumotlarni kiritishdan oldin esa ular orasidagi aloqalarni o'rnatib olishimiz, keyin esa ma'lumotlarni kiritishimiz maqsadga muvofiq.

Jadvallar orasidagi aloqalarni o'rnatish deganda asosiy jadvallar bilan ma'lumotli jadvallarni bog'lash tushuniladi. Bizda asosiy jadvallar "Tashkilotlar ro'yxati" va "Ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlar joylashgan xududlar" va "Iqtisodiy va texnologik muammolari ro'yxati iqtisodiy va texnologik muammolari ro'yxati" jadvallari, qolgan jadvallar esa ma'lumotli jadvallar hisoblanadi.

Asosiy va ma'lumotli jadvallar orasidagi aloqalarni o'rnatishni "Tashkilotlar ro'yxati" jadvali va "Loyihaga ma'sul tashkilot" jadvallarini bog'lashda ko'rib o'tamiz.

"Istemol tovarlar reklamasi va bazasi Tashkilotlar ro'yxati" jadvalini konstruktor rejimida ochamiz, guruh maydonini tanlaymiz. Bu maydonning ma'lumotlar tipi bo'limiga o'tganimizda yangi ro'yxat ochiladi. Ulardan master podstanovokni tanlaymiz. Natijada yangi muloqot oynasi ochiladi

Asosiy va ma'lumotli jadvallarni bog'lashdan asosiy maqsad, asosiy jadvallarni to'ldirishda ma'lumotlarning ko'p takrorlanishining oldini olish, jadvalga ma'lumotlarni kiritishni osonlashtirish va ma'lumotlarning kompyuter xotirasidan kam joy egallashidir.


Jadvallarni loyihalab olganimizdan so'ng, keyingi ish unga ma'lumotlarni kiritishdir. "Tashkilotlar ro'yxati" jadvaliga ma'lumotlarni kiritishni ko'rib o'tamiz.

Tashkilotlar ro'yxati to'g'risidagi ma'lumotlar markazda MS Word dasturida bo'lib, oddiy jadval ko'rinishida tasvirlangan. Bu jadvalga ishlov berib uni oddiy matn ko'rinishida o'tkazib oldik. Jadvalda tashkilotlar ro'yxati haqidagi boshqa ma'lumotlarni avtomatik kiritib oldim.

Ikkinchi asosiy jadvalimiz "Iqtisodiy va texnologik muammolari ro'yxati iqtisodiy va texnologik muammolari ro'yxati" jadvali bo'lib, bu jadval asosan korxona va tashkilotlar muammolari, adreslari, raxbarlari, ma'sul shaxslari, tegishli kafedralar keltirilgan ushbu jadvallarni yuqorida ko'rsatib o'tilganidek bog'lab olamiz.

2.2. Aksionerlik jamiyatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasining so'rovlar yaratish.


Aksionerlik jamiyatlari bo'yicha Jadvallarni loyihalash 2.2.1 rasmda ko'rsatilgan. Konstruktor - konstruktor yordamida so'rov hosil qilish.



unga ma'lumotlarni kiritish va jadvalga tegishli ba'zi bir tushunchalar bilan tanishdik. Jadvalga ma'lumotlarni kiritish qanchalik qiyin bo'lsa, undan kerakli ma'lumotlarni ajratib olish undan ham mushkul. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Accessda so'rov (zaprosi) obekti kiritilgan bo'lib, u juda ko'p imkoniyatlarga ega .


So'rovlar yordamida bir necha jadvallardagi ma'lumotlarni ko'rish, tahlil qilish va o'zgartirish mumkin. Shuningdek, ulardan shakl va hisobotlar uchun manba sifatida ham foydalaniladi. So'rov ko'pincha tanlash uchun ishlatiladi. Uning bajarilishi jarayonida tanlov shartlarini qanoatlantiruvchi ma'lumotlar bir

yoki bir nechta jadvallardan (so'rovlardan) tanlanadi va ma'lum tartibda aks ettiriladi. Accessda so'rovlarning bir necha turi mavjud. So'rovlarni hosil qilish



uchun ma'lumotlar bazasi oynasidan so'rov (zaprosi) bo'limini tanlaymiz. Hosil bo'lgan oynada Sozdat bo'limini tanlab oynani hosil qilamiz. Bu oynada so'rovlar hosil qilishning 5 ta usuli keltirilgan:


Prostoy zapros - oddiy so'rovlar hosil qilishning qulay usullaridan biri bo'lib, u Sozdaniye zaprosa s pomoshyu mastera bo'limi bilan bir xil.



Biz yaratilgan jadvallardan so‘rovlar hosil qilishda asosan konstruktor xolatidan foydalanamiz.


Dastlab, so‘rovlar hosil qilishdan oldin bizga qanday ma’lumotlar kerakligini aniqlab olamiz.

Konstruktor yordamida so‘rovlarni hosil qilamiz. So‘rovlar hosil qilishning eng qulay va umumiy usuli konstruktor usulidir. Bizga ma’lumki, jadvallarni loyihalashda ham konstruktordan foydalanganmiz. So‘rovlarni loyihalashda ham konstruktordan foydalanamiz.




Muloqot oynasining Dobavleniye tablitsi oynasida yaratilgan jadvallarning ro'yxati keltirilgan. Undan "Aksionerlik jamiyatlarini boshqaruvini", "Loyihada ma'sul tashkilot, jadvallarini tanlaymiz va Dobavit tugmasini yoki sichqoncha chap tugmasini tez-tez ikki marta bosamiz. Natijada tanlangan jadval konstruktor qismining yuqori qismida paydo bo'ladi. Bu jadvalning maydonlari ustiga sichqonchani bosib turgan holda so'rov blankasiga sudrab o'tkazamiz. Natijada "Aksionerlik jamiyatlarini boshqaruvini nomi, Loyihada ma'sul tashkilot bilan ishlash" jadvalining aniqlash maydonlari so'rov blankasida paydo bo'ladi. Bu maydonlardagi tashkilotlar nomi topish uchun Like funksiyasidan foydalanamiz. Natijada quyidagi ko'rinishdagi so'rov hosil bo'ladi (2.3.13-rasm).

Mastera- mastera yordamida so‘rov hosil qilish. Prostoy zapros - oddiy so‘rovlar hosil qilishning qulay usullaridan biri bo‘lib, u Sozdaniye zaprosa s pomoshyu konstruktor bo‘limi bilan bir xil. Mastera rejimini tanlaymiz va natijada yangi oyna hosil bo‘ladi



Loyihaga ma'sul tashkilot bo'limini tanlaymiz va unga tegishli maydonlar chiqadi. Ularni tegishlisini o'tkazib olamiz. Sung daleye tugmasini bosamiz. Kerakli nom kiritib Gotovo tugmasini bosamiz. Natijada qo'yidagicha zapros hosil bo'ladi.




Shunga uxshash boshqa jadvallarini so'rovlarini yaratish mumkin. Keyingi bo'limlarda yaratilgan jadvallar va so'rovlarga shakllalar va hisobotlar yaratishni ko'rib o'tamiz.


2.3. Aksionerlik jamiyatlar bo'yicha shakllar yaratish

Aksionerlik jamiyatlari bo'yicha shakllarni yaratish, So'rovlarni loyihalash, jadval va mavjud so'rovlardan foydalanish va yangi so'rovlarni hosil qilish bilan tanishamiz. Jadvallar yordamida ixtiyoriy ko'rinishdagi ma'lumotlarni hosil qilish va saqlashni bilamiz. Eng avvalo jadvallar va surovlar to'ldirilib va shu jadval va surovlardan foydalanib shakl yaratish bu jarayonning tub mohiyatini ochib beradi.

Xuddi shuningdek, mavjud ma'lumotlardan keraklilarini so'rovlar yordamida ajratib olishni ko'ramiz.




Bu yerdan kerakli ko'rsatkichlarni tanlab olishimiz mumkin. Masalan: ID,



Aksionerlik jamiyati soni, Chiqarilgan aksiyalar soni.

Ammo jadvallarga to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot kiritish va so'rovlar yordamda ularni tahlil qilish foydalanuvchi uchun har doim ham qulay emas, ayniqsa, MS Access bilan tanish bo'lmagan foydalanuvchilar uchun ma'lum noqulaychiliklar paydo bo'ladi. Ma'lumotlar bazasidan foydalanishda shaklning roli beqiyosdir. Umuman, shakllar ma'lumotlarni kiritish va ularni foydalanuvchiga qulay ko'rinishda tasvirlash uchun ishlatiladi.

6 xil turda shakl berishimiz mumkin.




Shakllarni biz hayotda ko'p uchratganmiz. O'qish jarayonida biror bir so'rovnoman (anketani) to'ldirishga to'g'ri kelgan, o'qishga yoki ishga kirish jarayonida shaxsiy varaqalar to'ldirganmiz. Shularning o'zi shakldir. Shakl shu ko'rinishdagi elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Elementlarning soni nechta bo'lishi odatda, qo'yilgan masalaga va shaklni tuzuvchisiga bog'liq.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shaklni jadval yoki so'rov uchun qurish mumkin. Shaklni qurish uchun ma'lumotlar bazasi oynasidan shakl obektini tanlaymiz. Bizda hozircha shakl bo'lmagani uchun bu oyna bo'sh. Bu oynadan Sozdat bo'limini tanlaymiz. Natijada muloqot oynasi paydo bo'ladi. Mazkur oyna ikki qismdan iborat bo'lib, uning yuqori qismida shaklni nima yordamida qurish tanlansa, pastki qismida esa nimaga (jadval yoki so'rovga) qurish


tanlanadi. Bu qismdagi ochiluvchi menyuda ma'lumotlar bazasidagi barcha jadval va so'rovlarning ro'yxati keltiriladi.

Shakl qurishning eng oson yo'li bu Master shakldir. Yuqorida belgilab olingan shakllarni loyihalaymiz. Buning uchun Master formni va "Tashkilotlar nomi" nomli jadvalni tanlaymiz. OK tugmasini bosib keyingi muloqot oynasiga o'tamiz .




Dostupniye polya bo'limida "Tashkilotlar nomi" jadvalining mavjud maydonlari ro'yxati keltirilgan. Bu ro'yxatdan kerakli maydonlar: maydonlarini  tugmani bosish bilan Vibranniye polya bo'limiga o'tkazamiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o'tamiz. Yaratilayotgan shaklning tashqi

ko‘rinishini tanlaymiz, bizda v odin stolbets ni tanlaymiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz .




Bu rasmda yaratilayotgan shaklning ko‘rinish stili tanlanadi, biz Chertej ni tanlaymiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz va yaratilayotgan shaklga “Tashkilotlar nomi shaklsi” nomini berib saqlaymiz. Tayyorlangan shakl dastlab ustun ko‘rinishida nomoyon bo‘ladi. Uni o‘zimiz xoxlagandek ko‘rinishga keltirib olishimiz uchun shaklni uskunalar panelidan yoki Vidsidan Konstruktor rejimiga o‘tamiz va tegishli o‘zgartirishlarni amalga oshirib shaklni o‘zimiz xoxlagan ko‘rinishga keltirib olamiz.



Biz bu bo‘limda yaratilgan jadvallar va so‘rovlar asosida shakllarni loyihalashni va shakllarga qo‘shimcha ma’lumotlar kiritishni, tegishli o‘zgartirishlar kiritishni va shakllar yaratishni ko‘rib o‘tdik. Yaratilgan shakllar foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega bo‘lib, ularda ishlash foydalanuvchilar uchun ko‘p qulayliklarga ega.

2.4. Aksionerlik jamiyatlarni nomi bo'yicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlash.

Bu bo'limda Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismi amalga oshiriladi. Yani, yaratilgan jadvallar va so'rovlar asosida hisobotlar tayyorlanadi. Dastlab yaratiladigan hisobotlarni aniqlab olamiz. Asosiy hisobot Tashkilotlar nomi, loyihada ma'sul tashkilot bo'yicha hisobotlarni tayyorlash lozim.




MS Access ning eng kuchli tomonlaridan biri hisobotdir. Uning yordamida ma'lumotlarni qulay va foydalanuvchiga tushunarli ko'rinishda tayyorlash va chop etish mumkin.

Jadvallar yoki so'rovlar yordamida tayyorlangan jadvallarni chop etishda ularga har xil grafik obektlarni qo'yish imkoniga ega emasmiz. Bu ishni hisobot yordamida soddagina amalga oshirish mumkin. Xuddi shuningdek,

ma'lumotlarni guruhlarga ajratish va har bir guruh bo'yicha ma'lum hisoblashlarni amalga oshirish mumkin.

MS Accessda hisobot tayyorlash uchun oynadan Otcheti obektini tanlaymiz. Ochilgan oynadan Sozdat tugmasini bosib keyingi muloqot oynasini ochib olamiz .



Mazkur oynaning yuqori qismida keltirilgan bo'limlarning mazmuni quyidagicha:

Конструктор - hisobotni konstruktor yordaraida qurish.

Master otchetov – hisobotni hisobot ustasi yordamida qurish. Bu holda shaklni master shakl yordamida yaratish bilan bir hildir.

Avtootchet: v stolbets, Avtootchet: lentochniy, Bu holda hisobot yaratish uchun maxsus dastur (usta) ishlaydi.


Master diagramm - bu holda tanlangan jadval yoki so'rovga dia-gramma (gistogramma, grafik va h.k.) quriladi.

Pochoviye nakleyki – hisobotlani eletron pochtadan yuborishga tayyorlash.

Pastki qismida yaratilgan jadvallar va so'rovlarning ro'yhati keltirilgan.


Master otchetov (Hisobotlar ustasi) yordamida Tashkilotlar nomi hisobotlarni loyihalaymiz.

Bu oynada tashkilotlar nomi maydonidagi qiymatlarni Po vozrastaniyu (o'sish bo'yicha) tartiblashni tanlaymiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o'tamiz



Bu oynada hisobot maketi Stupenchatiyini va hisobot varag'i albomnayani tanlaymiz, Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o'tamiz. Unda hisobotning ko'rinish stilini tanlaymiz va hisobotni saqlaymiz. Gotovo tugmasini bosib hisobotni ko'rishimiz mumkin. U dastlab tushunish qiyin bo'lgan xolatda

bo‘ladi. Tovarlar nomi ma’lumotlar bazasi dasturini ishga tushuramiz. Natijada quyidagi ko‘rinishdagi oyna ochiladi.



Shunday qilib, bitiruv malakaviy ishining II bobida ma’lumotlar bazalari, ularning turlari, ma’lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari, shu jumladan MS Access tizimi, MS Access tizimida ma’lumotlar bazasini loyihalash va yaratish texnologiyalari qo‘yilgan masala nuqtai nazaridan tahlil qilinib, umumlashtirilgan ma’lumotlar berildi.

Microsoft Access

Файл Правка Вид Сервис Окно Справка

Введите вопрос

100% Закрывать Установка

Aksioner korxonalar

ID	jamiyatlar soni	shi mavjudlari	agan arsiyalar	Asioner korxonalar	Izox
0	0	0	0,00 p.		
0	0	0	0,00 p.		
0	0	0	0,00 p.		

Страница: 2

Готово

пуск Total Commander 8.0... Бойматов Фарход-А... ASIONER KORXONA :... Aksioner korxonalar

NUM EN 16:04

III Bob. Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari va qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish.

3.1. Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari bozorini tashkil qilish

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari bo'lgan va qimmatli qog'ozlar bozorida o'zga bir faoliyat uchun litsenziyasi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar shu jamiyat aksiyadorlari reyestrining saqlovchisi bo'la olmaydilar. Qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrini yuritish bilan shugullanuvchi ro'yxatchi (emitentning o'zi bundan mustasno) qimmatli qog'ozlar yuzasidan bitimlar tuzishga xaqli emas.

Qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrini yuritish:

qimmatli qog'ozlar reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarning nominal saklovchilari va qimmatli qog'ozlar egalari aynan to'g'riligini aniqlashni;

ularning o'z nomlariga ro'yxatdan o'tkazilgan, axborot olish va uni mazkur shaxslarga yo'llash xamda qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrini tuzish imkonini beradigan qimmatli qog'ozlarga nisbatan bo'lgan xuquqlarini xisobga olishni;

qimmatli qog'ozlar egalari reyestriga o'zgartishlar kiritishni zarur kilib ko'yadigan barcha faktlar va xujjatlar to'grisidagi xamda bunday o'zgartishlarni kiritish borasida reyestr saklovchining barcha xarakatlari xaqidagi axborotni qonun xujjatlarida belgilangan muddatlarda to'plash va saklashni ta'minlamogi lozim.

Egasi yozilmagan qimmatli qog'ozlar uchun qimmatli qog'ozlar egalari reyestrini yuritish tizimi joriy etilmaydi. Reyestrni yuritish uchun shartnoma fakat bitta yuridik shaxs bilan tuziladi.

Jamiyat aksiyadorlari reyestrda ro'yxatga olingan xar bir shaxs (aksiyador yoki nominal aksiya saklovchi) ro'yxatga olingan xar bir shaxsning nomiga yozilgan aksiyalarning soni va turlari to'grisidagi ma'lumotlar, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Jamiat aksiyadorlar reyestrini yuritish va saklashni jamiat davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran uzogi bilan bir oy ichida ta'minlamogi lozim.

Jamiat aksiyadorlari reyestrda ro'yxatga olingan shaxs o'ziga tegishli ma'lumotlar o'zgarganligi to'grisida jamiat aksiyadorlari reyestrining saklovchisini o'z vaqtida xabardor etishi shart. U o'ziga tegishli ma'lumotlar o'zgarganligi to'grisidagi axborotni taqdim etmagan taqdirda, shu munosabat bilan aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun jamiat va ixtisoslashgan ro'yxatchi javobgar bo'lmaydilar.

Dividend foydaning soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan so'ng aksiyadorlar jamiyati ixtiyorida qoladigan, aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismi.

Jamiat aksiyalarning xar bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

Aksiyadorlar jamiyatining umumiy yig'ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiat yilning xar choragida, xar yarim yilda yoki yiliga bir marta joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'grisida, agar ushbu Qonun va jamiat ustavida o'zgacha qoida belgilanmagan bo'lsa, qaror qabul qilishga (e'lon qilishga) xaqlidir. Aksiyalarning xar bir turi bo'yicha oraliq dividendlar (yilning xar bir choragi bo'yicha, yarim yillik dividendlar) to'lash, dividend miqdori va uni to'lash shakli to'grisidagi qaror jamiatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Aksiyalarning xar bir turi bo'yicha yillik dividendlar to'lash, dividendning miqdori xamda uni to'lash shakli to'grisidagi qaror jamiat kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Yillik dividendlarning miqdori jamiat kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan ko'p va to'langan oraliq dividendlardan kam

bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividend to'lamaslik to'grisida, shuningdek imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lik bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash xaqida qaror qabul qilishga xaqli, bunday aksiyalar bo'yicha dividend miqdori ustavda belgilab qo'yiladi.

Agar oraliq dividendlar to'lash oqibatida aksiyadorlar jamiyatining moliya-xo'jalik axvoli jiddiy tarzda yomonlashadigan bo'lsa, oraliq dividendlar to'lash taqiqlanadi.

Dividendlar jamiyatning joriy yildagi sof foydasidan to'lanadi. Muayyan turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyatning maxsus mo'ljallangan fondlari xisobidan to'lanishi mumkin.

Yillik dividendlarni to'lash sanasi jamiyat ustavi yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi chiqargan qaror bilan belgilab qo'yiladi va shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim. Oraliq dividendlar to'lash sanasi jamiyat kuzatuv kengashining oraliq dividendlar to'lash to'grisidagi qarori bilan belgilanadi, biroq ana shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kamida 30 kun o'tishi kerak.

Dividendlarning xar bir to'lovi uchun jamiyatning kuzatuv kengashi dividend olish xuquqiga ega bo'lgan shaxslarning ro'yxatini tuzadi. Oraliq dividendlarni olish xuquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatiga jamiyat kuzatuv kengashi dividendlar to'lash to'grisida qaror qabul qilgan kundan kamida 30 kun oldin jamiyat aksiyadorlari reyestriga kiritilgan aksiyadorlar va aksiyalarning nominal saklovchilari, yillik dividendlar olish xuquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatiga esa aksiyadorlarning umumiy yillik yig'ilishida katnashish xuquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati tuziladigan kungacha jamiyat aksiyadorlari reyestriga kiritilgan aksiyadorlar va aksiyalarning nominal saklovchilari kiritilishi lozim.

Dividendlar to'lash vaqtida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha kat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli

miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda jamiyat mazkur aksiyalarni saklovchilarga dividendlar to'lashni rad etishga xaqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lashni sud orkali talab qilishlari mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmasa yoki zarar ko'rib ishlagan bo'lsa, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar ana shu maqsad uchun tashkil etilgan jamiyat zaxira fondi xisobidan va ana shu fond doirasidagina to'lanishi mumkin. Egasi yoki uning qonuniy xuquqiy vorisi yoxud merosxo'ri da'vo qilish uchun belgilangan muddatda talab kilib olmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga binoan jamiyat ixtiyorida qoladi.

Davlat tomonidan vakolat berilgan organ O'zbekiston Respublikasining norezident aksiyadorlari xoxishiga binoan, belgilab ko'yilgan tartibda ular olgan dividendlarni ana shu dividendlar xisoblab chikarilgan sanada amalda bo'lgan kurs qiymati bo'yicha erkin almashtiriladigan valyutaga ayirboshlab berishi shart.

Aksiyadorlar reyestridan olingan, emitent tomonidan tasdiklangan ko'chirmalar xamda to'langan dividendlar summasi va ular yozilgan sana to'grisida aksiyadorlar jamiyati buxgalteriyasi bergan ma'lumotnoma ayirboshlash uchun asos bo'ladi.

Aksiyadorlar reyestrda u yopilgunga kadar yozib ko'yilgan investorlar dividend olish xuquqiga ega. Aksiyadorlar reyestri aksiyadorlarning yig'ilishi rasmiy ravishda e'lon qilingan sanadan 30 kun avval yopiladi.

Davlat korxonalarini qayta tuzish natijasida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlar ustav fondining boshlangich miqdoriga muvofiq tarzda, mavjud aksiyalarning to'la summasi bo'yicha, aksiyalarning davlatga tegishli, xaki to'lanishi to'grisidagi qaror qabul qilinayotgan paytda sotilmay kolgan qismini xam xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

Emitent aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi belgilagan muddatlarda dividendlarni o'z aybi bilan to'lamagan taqdirda to'lanmagan va to'lik olinmagan dividendlar yuzasidan Markaziy bank belgilagan takror moliyalash stavkalari bo'yicha penya yoziladi.

Aksiyadorlik jamiyati e'lon qilgan dividendlarni to'lashni aksiyador sud tartibida talab qilishga xaqlidir. Rad etilgan taqdirda, jamiyatga nisbatan qonun xujjatlarida belgilab ko'yilgan tartibda to'lovga kobiliyatsizlikni bartaraf etish yoki bankrot bo'lgan deb e'lon qilish tadbiri ko'llaniladi.

Jamiyat:

jamiyat ustav fondining xammasi to'lab bo'linguncha; agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda to'lovga kobiliyatsizlik (bankrotlik) belgilari bo'lsa yoki dividendlar to'lash natijasida jamiyatda shunday belgilar paydo bo'lsa;

jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav va zaxira fondlari summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash (e'lon qilish) to'grisida qaror qabul qilishga xaqli emas.

Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan xolda e'lon qiladi. Ochiq aksiyadorlik

jamiyati to'lanadigan dividendlar miqdori to'grisidagi ma'lumotlarni dividendlar to'lanadigan sanadan 31 kalendar kun oldin ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Agar mijozning topshirigiga binoan aksiyalar investitsiya instituti tomonidan boshqarilayotgan bo'lsa, aksiyalarni saklovchiga dividendlar investitsiya instituti xakini chegirib tashlagan xolda to'lanadi, bu xak mijoz bilan tuzilgan shartnomada belgilab qo'yiladi.

Dividendlar qonun xujjatlariga muvofiq soliqqa tortiladi.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishni ragbatlantirish maqsadida dividendlardan soliq olishda vaqtinchalik imtiyozlar belgilashi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi boshqaradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatni boshqarishning oliy organidir.

Jamiyat xar yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning umumiy xisobot yig'ilishini) o'tkazishi shart.

